

PAPER

## BARKAMOL AVLOD SHAXSINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXALOGIK TAMOYILLARI

Faxriddinova O'g'iloy<sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup> NDU pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2-kurs magistranti

\* faxriddinova@gmail.com

### Abstract

Mazkur maqolada yangi O'zbekistonda barkamol avlod shaxsini shakllantirishda zarur bo'lgan asosiy pedagogik va psixologik tamoyillar yoritilgan. O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning asarlari, milliy va xorijiy pedagogik nazariyalar asosida yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion metodlar, tarbiya va ta'lif uyg'unlighining zamonaviy talqinlari berilgan.

**Key words:** barkamol avlod, pedagogik tamoyil, psixologik yondashuv, shaxs tarbiyasi, ijtimoiy faoliyat, milliy g'oya, innovatsion ta'lif.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida inson, uning manfaatlari, farovon hayoti va erkin rivojlanishi turibdi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda biz uchun eng muhim masala – bu barkamol, yetuk, iyomon-e'tiqodi butun, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashdir" [1]. Shu boisdan, ta'lif-tarbiya tizimining zamonaviy bosqichida pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg'unlashtirish orqali barkamol avlodni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

"Barkamol avlod" atamasi bugungi kunda keng talqin qilinmoqda. U faqat aqliy rivojlangan, bilmeli yoshlarni emas, balki jismonan sog'lom, ma'naviy boy, ijtimoiy faol va mustaqil fikrllovchi shaxsni anglatadi. Bu shaxs tipining shakllanishida ta'lif va tarbiya, oila, jamiyat, maktab, ommaviy axborot vositalari hamda psixologik muhit asosiy ornillar sifatida ko'rildi [2].

Pedagogik tamoyillar – bu tarbiya va ta'lif jarayonida amal qilinadigan asosiy yo'naliishlardir. Barkamol avlodni shakllantirishda quyidagi tamoyillar muhim o'rinn tutadi:

-Ma'naviyat va ma'rifatga tayanish – yoshlar ongiga milliy qadriyatlar, tarix, din, til va urf-odatlar asosida bilim singdirish;

-Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – har bir o'quvchining ichki salohiyatini ochish, unga individual yondashuv asosida ta'lif-tarbiya berish;

-Faoliykn rasmiy batlantirish – o'quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi subyekt sifatida ko'rish [3].

Bugungi kunda bu tamoyillar "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun,

"Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ hujjalarda ham mustahkam o'rinn olgan.

Pedagogik faoliyatda psixologik yondashuvlarning qo'llanishi shaxsni chuqur anglashga xizmat qiladi. Barkamol shaxsni tarbiyalashda quyidagi psixologik tamoyillar muhimdir:

\*Individuallashtirish – har bir bolaning o'ziga xos psixotipi, qiziqishi, temperamentiga mos tarbiya uslubi tanlash;

\*O'zini anglash va o'zini baholash – o'quvchilarda refleksiya va tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish;

\*Psixologik xavfsizlik – o'quv muassasasida do'stona va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish [4].

Masalan, L.S. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan "yaqin rivojlanish zonasasi" nazariyasi yoshlar bilan ishlashda murabbiy va o'qituvchining o'rnini qayta ko'rib chiqishga sabab bo'lgan.

Innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar; Zamonaviy psixopedagogik faoliyatda interaktiv metodlar, AKT vositalari, loyiha asosida o'qitish, soft-skills (yumshoq ko'nikmalar) kabi yo'naliishlar qo'llanmoqda. Bu yondashuvlar nafaqat bilim, balki mustaqil fikr, muammoni hal qilish, muloqot va yetakchilik kabi kompetensiyalarni ham shakllantiradi [5].

Shuningdek, "STEAM-ta'lif", "kritik fikrlashni o'stirish", "emosional intellekt" kabi konsepsiylar ham bugungi ta'lilda barkamol shaxsni shakllantirish vositasi sifatida keng qo'llanmoqda. Barkamol avlodni shakllantirish faqat maktab yoki o'qituvchining vazifasi emas. Oila – bu birinchi tarbiya maktabi. Jamiyatdagi axloqiy muhit, ommaviy axborot vositalarining ta'siri ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli,

“uchlik birlik” – oila, maktab va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlik tamoyili dolzarbdir [6].

Barkamol avlodni shakllantirish – O‘zbekistonning kelajagi, barqaror rivojlanishi va xalqimizning farovon hayoti garovidir. Shu sababli pedagogik-psixologik tamoyillar asosida, yangicha metodlar va innovatsion yondashuvlar bilan boyitilgan ta’limtarbiya jarayonini tashkil etish zaruratga aylangan. Ushbu yo‘nalishdagi uzluksiz faoliyat orqali Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo’shadigan barkamol, yetuk, iymonli avlodni voyaga yetkazish mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib, barkamol avlodni shakllantirish quyidagi yo‘nalishlarda izchil davom ettirilishi lozim:

-Ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik metodlar keng qo’llanilishi;

-Psixologik xizmatlar va murabbiylik tizimini mustahkamlash;

-Oila, maktab va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish;

-O‘quvchilarning ijtimoiy loyihalarda ishtirokini ta’minlash;

-Ijodiy fikrlovchi, erkin, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2022). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2022. – B. 89.
2. Qurbanov, A. (2021). Pedagogik tamoyillar nazariyasi. – T.: “Ilm ziyo”, 2021.
3. Turaev, B. (2020). Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asoslari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020
4. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society. – Harvard University Press.
5. Rasulov, S., Karimova, M. (2023). Innovatsion pedagogika va STEAM-ta’lim asoslari. – T.: “Fan va taraqqiyot”, 2023.
6. G‘afurova, N. (2019). Oila va ta’lim muassasasi hamkorligi. – Buxoro: BDU nashriyoti.